

---

## Rishton dalalarida paxta yig'im-terimi qizg'in pallaga kirgan

Kuz havosi. Ilgarigi issiqlar tafti pasaygan. So'nggi kunlarda osmonga tez-tez bulut chiqayapti. Endi hammamiz hushyor turishimiz yig'im-terim sur'atini yana ham oshirishimiz kerak.

Negaki, mavsum endigina boshlanib, katta mashaqqatlar bilan yetishtirilgan hosilimiz dalada yotibdi. Bugun paxtazorlar oppoq tus olgan. Lo'ppi-lo'ppi ochilgan paxtalar ko'zni quvontiradi. Bu hosilni yetishtirish, uchun ozmuncha zahmat chekildimi? Lekin qiyinchiliklar ortda qoldi. Tadbirkor fermerlar fidokorona mehnat qilib, barakali xirmon tiklashga zamin yaratishdi. Endigi asosiy vazifa milliy boyligimiz bo'lgan paxtani nest-nobud qilmay, yig'ishtirib olishdan iborat.

Bugun fidoyi fermerlarni nafaqat tumanimizda, balki viloyatimizda xam ko'pchilik taniydi. Ular sidqidildan mehnat qilishib, el hurmatiga sazovor bo'lishayapti. Ezgu niyatlar bilan boshlangan ishlar xayrli kechadi. Tuman paxtakorlari ham ko'ngillariga yaxshi niyatlarni tugib, yig'im-terimga birinchilardan bo'lib kirishdilar.

-Dehqonlarimizning kayfiyatlari baland, - deydi tuman hokimi. - Terim sur'ati kun sayin ko'tarilmoqda. Tuman mahalalaridan yordamga chiqqan ko'ngilli terimchilar har yilgidek bu yil ham hosilni yig'ishtirib olishda yaqindan ko'maklashishmoqda. El yurtimizni obod bo'lishi, turmushimiz farovonligi avvalo yaratganning inoyati bilan bizning hamjihatligimiz bilandir.

Tuman hokimi hududlardagi paxta dalalarida bo'lib, hududdagi mas'ul rahbarlarga, fermer xo'jaligi rahbarlariga, bu yilgi paxta hosilini nes nobud qilmay terib olib mamlakatimizning ulkan xirmoniga hissa qo'shmog'imiz, bizning insoniy burchimizligini, paxtamizdan daromad kelsa yurtimiz obod turmushimiz go'zal bo'lishini, birorta chanoqni ham uvol qilmasdan hozirgi g'animat kunlarda paxtakorlarga yordam berishimiz, elim deb, yurtim deb yonib yashayotgan fuqorolarimizni g'ayratiga g'ayrat qo'shib yelkadosh bo'lib, xirmonlarga baraka tilashlarini tushuntirib o'tdi.

### **Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-10-03 16:45:23